

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

YANVAR

ANDIJON, 2025

INGLIZ TILIDA SINGULAR "THEY" ISHLATILISHI VA GRAMMATIK AHAMIYATI

Babajonova Iqbol Salamaddinovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada they singular qo'shimchasi va uning ishlatalishiga doir qiyosiy-tahlil berilgan. Ushbu qo'shimchaning ishlatalishi hamda Grammatik qoidaga muvofiq qiyoslangan. They qo'shimchasining ishlatalishi va qachon kirib kelgani tarixi haqida ma'lumotlar berilgandir.

Kalit so'zlar: qo'shimcha, shaxs oti, ingliz tili, o'zbek tili, lingvistika, qiyosiy tahlil, tarjima, lug'at.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, sifat va samaradorlikni yanada oshirish borasida keng islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim sohasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani mamlakatimizda yoshlarning har tomonlama yetuk va salohiyatlari etib shakllantirishga qaratilgan e'tibordan dalolat beradi. Yurtimizda ta'lim sohasini yangi pog'onaga olib chiqishda xorijiy tillarni ayniqsa ingliz tilini rivojlantirishga ham alohida e'tibor berilmoqda. Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, ingliz tilini o'rgatishda yangi davr boshlangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu fikrlarimizning isboti sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021yil 20-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son qaroriga muvofiq mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatishni ta'lim siyosatining ustuvor yo'naliishi sifatida rivojlantirish orqali ta'lim sifatini tubdan yangilash va sohaga malakali pedagoglarni jalg qilish maqsadini belgilab qo'yilganida yuqorida fikrlarimizning isbotini ko'rishimiz mumkin.

Har bir tilning o'ziga xos morfologik tizimi va grammatika qoidalari mavjud. Shaxs otlari (personal nouns) tilning markaziy elementlaridan biri bo'lib, ular shaxsning jinsini, yoshini, ijtimoiy mavqeini va boshqa xususiyatlarini ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Ingliz va o'zbek tillarida shaxs otlarining yasalishi turli morfologik qonuniyatlariga asoslanadi va bu tillarning lingvistik tuzilishidagi farqlarni ko'rsatadi. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida shaxs otlarining yasalishi, ularning o'zaro o'xshashliklari va farqlari tahlil qilinadi. Maqsad, bu tillardagi morfologik va sintaktik jihatlarni, shaxs otlarining shakllanishini, jins va yoshni ifodalashdagi farqlarni ilmiy asosda yoritishdir.

Ingliz tili grammatikasi va unda shaxs otlarining yasalishiga doir bir qator olimlarimiz o'z ilmiy izlanishlarini olib borganlar. M.G'afforov va R.Qosimovalarning ingliz tili grammatikasi nomli o'quv qo'llanmasida shaxs otlariga kishilik olmoshklari deya ta'rif beradilar. Olmosh deb, ot va sifat o'rnida ishlataladigan so'zlarga aytildi (M.G'afforov; 2010). Olim ushu o'z kitobida shaxs otlariga juda ham tor doirada to'xtalib o'tgan. Shaxs otlarining birlik va ko'plik shakllariga to'xtalib o'tmaganlar. He, she, it, ya'ni o'zbek tiliga tarjimada u III daraja birlik shaklining qo'llanishi qanday holatlarda he, yoki she ishlatalishga to'xtalib o'ganda grammatikani o'rganishda yana ham anqlikka erishish imkoniyati mavjud bo'lar edi. M.Rustamov va M.Asriyanslarning Igliz tili grammatikasi nomli o'quv qo'llanmasida muammoga sal murakkabroq shaklda yondashib, kishilik olmoshlari va uning ikki kelishikda tuslanishiga ham alohida to'xtalib o'tadi. Obyekt kelishigida kishilik olmoshining to'ldiruvchi va hol vazifalarida ishlatalishini ham ilmiy asoslab bergen. M.Rustamov; 2006).

Ingliz tilida shaxs otlarining yasalishi

Ingliz tili, hind yevropa til oilasi german guruhiga mansub bo'lib, shaxsni ifodalashda fe'l va zamonlar, shuningdek, shaxs zamonlari (personal pronouns) yordamida morfologik yasalishlarga asoslanadi. Ingliz tilida shaxs otlari, asosan, shaxs zamonlari va ba'zi maxsus kasb so'zlari orqali ifodalanadi. Shaxsni ko'rsatuvchi zamonlar va kasb so'zlari jinsga qarab farqlanadi.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

YANVAR

ANDIJON,2025

Ingliz tilida singular "they" ishlatalishi. "They" birinchi marta jinsiy neytral shakl sifatida XIV asrdan beri ishlataligan. Biroq, grammatic "singular they" XX asrda qabul qilina boshladi va ayniqsa, XXI asrda jamiyatda gender sezgirligi oshgani sari keng qo'llanilmoqda. Shaxsning jinsi noma'lum bo'lganda ishlataladi.

Misol: "If a student wants to succeed, they must work hard."

Gender identifikatsiyasini hisobga olib, o'zini an'anaviy jinsiy rol bilan bog'lamaydigan insonlarni ta'riflash uchun.

Misol: "Alex said they will join us later."

Ko'plab kompaniyalar va tashkilotlar, jumladan, rasmiy matnlar va ish bo'yicha ilovalarda jinsiy neytral tilni tan olishmoqda. Gender-neutral pronouns ("xe", "ze", "ey") singari yangi shakllar ham ishlab chiqilgan, ammo ular hali keng ommalashmagan.

Noytral ismlar:

Masalan: "Taylor," "Jordan," "Casey," "Morgan" kabi ismlar jinsiy neytral sifatida qabul qilinadi. Bu ko'pincha farzandlarga o'z shaxsiy identifikatsiyalarini tanlash imkoniyatini yaratish maqsadida tanlanadi.

Adabiyot va filmlar gender neytral ismlarni qahramonlarga berib, ularning jinsiy rolini cheklovsiz ko'rsatmoqda.

O'zbek tilshunosligida jins ifodalanish masalasida bir qator olimlar tadqiqot ishlarini olib borganlar. O'zbek tilida jins bir qator leksemalarning ma'noviy-lug'aviy guruhlar orqali ifodalanadi. Masalan sulla-ro'mol leksemasida sulla erkaklarga tegishli bosh kiyimni, ro'mol esa ayollarga tegishli ekanini jins konsepti orqali ochib berish mumkin. Ushbu leksemada jins konsepti yashirinib turganini ko'rshimiz mumkin.

O'zbek tilida III shaxs birlikni aniqlashda bir xil ma'noda u atamasi ishlataladi. Ingliz tilida "They" atamasini o'zbek tilida tarjimasiga quyidagi Grammatik qoidani belgilab beradi.

Ismlar orqali milliy madaniyatni ko'rsatish:

- Alpomish, Tomaris, Amir Temur kabi shaxslarning ismlari o'zbek xalqining tarixiy qahramonlariga bo'lgan ehtiromini bildiradi.
- Bu ismlar odatda shaxsning ma'naviy qadr-qimmatini, jasoratini yoki xalq oldidagi xizmatlarini aks ettiradi.

Adabiyot va san'at:

- Bu ismlar o'zbek adabiyoti va san'atida xalq birligi, milliy g'urur va o'tmish qahramonliklarini ulug'lash uchun ramziy ma'noda qo'llaniladi.

Matematika va astronomiya:

- Ulug'bekning ilmiy faoliyati shunchalik katta ahamiyatga ega bo'lganki, uning nomi bilan rasadxona va tadqiqot markazlari atalgan.

Tibbiyot va biologiya:

- Ibn Sino ismi bilan dori vositalari va ilmiy atamalar bog'langan (masalan, "Avicenna" universiteti).

Ilmiy maqolalar va rasmiy tadqiqotlarda:

- Tarixiy shaxslarning ismlari ko'pincha ilmiy yondashuvni milliy kontekstda muhokama qilish uchun qo'llaniladi.
- Masalan: Alisher Navoiy nomi bilan "inson ma'naviy olami" tushunchalari tadqiq etiladi. Xulosa qilib aytish mumkinki, ingliz tilida: Jinsiy neytral shaxs otlari va yangi shakllarning rivojlanishi gender tenglikni targ'ib qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbek tilida: Tarixiy shaxslarning ismlari ilmiy, madaniy va tarixiy merosni aks ettiradi va xalqni ilhomlantirish vositasi sifatida qo'llaniladi.

Adabiyotlar:

1. 2021yil 20-maydag'i "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son qarori

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

YANVAR

ANDIJON,2025

2. G'apporov M., Qosimova R. Ingliz tili grammatikasi (akademik litsey va kasb-xunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma) – Toshkent.;, Turon iqbol 2008 y.
3. Rustamov M., Asiryans M. Ingliz tili grammatikasi. IIV akademiyasi. –Toshkent. 2006.
4. Syfullaye R.V., B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbanova, Z.Yunusova, Mabuzalova. Hozirgi O'zbek Adabiy Tili. Tosh Kent.2009. B221
5. Sloat, C. (1969). "Proper nouns in English". (pp. 26-30). Linguistic society of America.